

FIRIBGARLIKNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK KUCHAYTIRILDI

✓ Qonun bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra



Firibgarlikni axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi

✓ Endilikda ushbu qilmish



BHMning **300 baravaridan 400 baravarigacha** jarima



Yoki **2 yildan 3 yilgacha** axloq tuzatish ishlari



Yoxud muayyan huquqdan mahrum etib **5 yildan 8 yilgacha** ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga **moddiy madaniy meros obyektlariga nisbatan hurmatsizlik** bilan munosabatda bo'lganlik uchun javobgarlik kiritildi

✓ Ushbu huquqbuzarlik



Og'irlashtiruvchi holatlarda **15 sutka ma'muriy** qamoqqa olishga



Yoki **BHMning 20 baravaridan 30 baravarigacha** jarima solishga sabab bo'ladi





GEOGRAFIK OBYEKTLARGA NOM BERISHDA AHOLINING FIKRI O'RGANILADI



Geografik obyektlarga **jahon tarixida chuqur iz qoldirgan** shaxslarning ismi-sharifini berishga yo'l qo'yildi

Bunda O'zbekiston yoki jahon tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning ismi-sharifini berish ularning vafotidan keyin **Prezident qaroriga asosan** hamda, qoida tariqasida, **nomlari mavjud bo'lmagan aholi punktlarining tarkibiy qismlariga** nisbatan amalga oshiriladi



Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlash jarayonida **mahalliy aholining fikri hisobga olinadi**



Takliflar kelib tushganidan keyin muhokama qilish uchun ularni **5 ish kunida** tegishli organlar o'zlarining rasmiy nashrlarida, rasmiy veb-saytlarida, shuningdek ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi



Shuningdek, takliflar muhokamasi ular e'lon qilingan sanadan e'tiboran **15 kundan kam bo'lmasligi** kerak.



STANDARTLASHTIRISH TO'G'RSIDA YANGI QONUN QABUL QILINDI

Manba: O'RQ-800, 03.11.2022-y.

@huquqiyaxborot_lotin

Qonunga ko'ra, **O'zbekistonning milliy standartlashtirish tizimini** quyidagilar tashkil etadi:



- Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
- Standartlashtirish bo'yicha milliy organ
- Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari
- Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar

Standartlashtirishning asosiy vazifalaridan biri



fuqarolarning hayotini, sog'lig'ini va mol-mulkini hamda atrof-muhitni muhofaza qilishdan iborat

Standartlashtirish rejasi quyidagi **muddatli istiqbol uchun** qabul qilinishi mumkin:



qisqa (1 yilgacha)

o'rta (1 yildan 5 yilgacha)

uzoq (5 yildan 10 yilgacha)

Standartlarning **toifalari** jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ✓ **milliy** standartlar
- ✓ **xalqaro** (mintaqaviy) standartlar
- ✓ **xorijiy** mamlakatlarning standartlari

Standartlarning yagona axborot bazasi **Standartlashtirish bo'yicha milliy organ** tomonidan shakllantiriladi va yuritiladi

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran **12 oy o'tgach** kuchga kiradi.